

FILM TARJIMASIDA IZOHL OVCHI-ANIQL OVCHINING QAYTA BERILISHI

Xaitbayeva Jasmina Adixomjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti , 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xamidova Mohinaxon Alisherovna

Abstract: *This article explores Re-introduction of the explanatory modifier in the film translation. In our language , we refer to strangers such as uncle, aunt, sister, brother. let's see if the same thing is used in the translation of the film.*

Keywords: *translation, film, unfamiliar person, interpretability, Introduction, article.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается повторное использование аннотатора-определителя в переводе фильма с точки зрения интерпретируемости. В нашем языке к нам обращаются по отношению как дядя, тетя, сестра, брат и дядюшка. Давайте посмотрим, что же используется в переводе фильма.*

Ключевые слова: *перевод , фильм, незнакомый человек, интерпретируемость, введение, статья.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada film tarjimasida izohlovchi- aniqlovchining qayta berilishini tarjimashunoslik nuqtai nazaridan o'rganiladi. E. A. Nida o'zining "Toward a Science of Translating" asarida tarjimani manba tilidagi xabarni qabul qiluvchi tilga eng tabiiy ekvivalent shaklda qayta ifodalash deb ta'riflaydi.*

Shuningdek, J. C. Catford A Linguistic Theory of Translation asarida tarjimani bir tildagi matnni boshqa tilda ekvivalent matn bilan almashtirish jarayoni deb izohlaydi.

Shu nuqtai nazardan, maqolada to'g'ri tarjima nafaqat so'z ma'nosini, balki qo'lanish holatini ham tog'ri bo'lishini taminlash kerak. Chet-el filmlarida bu uslubni ko'p uchratmasligimiz mumkin ammo o'zbek tiliga tarjima qilinayotgan paytda ushbu usuldan foydalansak tomoshabinlarga ham ancha tshunarliroq va qiziqarliroq bo'ladi. Chunki biz o'zbeklar izohlovchi-aniqlovchilardan kundalik hayotimizda ko'p foydalanamiz.

Kalit so'zlar: tarjima, manosi, qollanilishi, film, izohlovchi-aniqlovchi, o'zbek.

Bugungi kunda tarjima sohasining rivoji davlat siyosati darajasida e'tiborga olinmoqda . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-maydagi PQ-4312-son qarorida shunday deyiladi;

“Chet tillarni o'rganishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida ” qarorda chet tillarni o'qitishda ilg'or tajribalarni joriy etish , tarjima madaniyatini yuksaltirish va milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarni rivojlantirish vazifasi belgilangan .

Tarjima jarayoni nafaqat so'zlarni bir tildan boshqasiga o'tkazish, balki madaniy, ruhiy va kontekstual ma'nolarni yetkazish jarayonidir. Ayniqsa izohlovchi-aniqlovchini to'g'ri paytda va to'g'ri uslubda foydalanish juda muhim. Mazkur maqolada asosan “Uyda yolg'iz” film to'plamidan misollarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Asosiy qism

Izohlovchi-aniqlovchini qo'llanilishi:

Uyda yog'iz-2 tarjima filmida judayam ko'p izohlovchi-aniqlovchilar kelgan, garchi asliy filmning o'zida kelmagan bo'lsa ham. Misol uchun, “*If you can not do any better than that kid you are going to lose*” so'zini “*Agar qo'lindan keladigon ish shu bo'lsa mishiqli o'ldim deyaver*” deya tarjima qilgan. Ushbu jumlada “**mishiqli**” izohlovchi aniqlovchidan foydalangan. Yana shunday misollardan biri “*Nine-year-olds rob candy stores, Marv.*” jumlasini “*Ularni bolalar tunaydi galvars*” ushbu jumlada

bir insonga daki berayotganligi uchun “**galvars**” degan so’zni ishlatgan, asliy tilda bu so’z bo’lmasa ham.

Izohlovchi-aniqlovchini tarjima tilidan to’gri keladigon manosini topib foydalanish.

Peter Newmark (1988, p. 39) ta’kidlaganidek, “kommunikativ tarjima o’quvchida asl matn o’quvchisiga yaqin ta’sir uyg’otishga intiladi.” Shu nuqtai nazardan qaraganda, ba’zi misollarda, misol uchun, “*Honey, do you know where the batteries for this camcorder are?*” jumlasini “Azizam kameramni akkumliyatorini ko’rmadinmi?” deya tarjima qilgan. Asliyat tildagi “**Honey**” so’zini “**Azizam**” so’zi bilan ifodalagan. Shulardan yana bir misol “*What kind of idiots do you have working here?*”ni “*Qanday axmoqlar ishlaydi o’zi mehmonxonengizda?*” deya tarjima qilgan. Bu jumlaning to’liq tarjima qilgan va “**idiots**” so’zini “**axmoqlar**” deya bergan.

Izohlovchi aniqlovchi tarjimasida madaniy va uslubiy moslashuv

Chet-el filmlarini bizni madaniyatimizga olib kirishdan oldin madaniy moslashtirilishi [cultural adaptation] usulidan foydalanishi lozim. Mona Baker [2011, p.230] ta’kidlaganidek, “tarjimon faqat aytilgan narsani emas, balki nimani nazarda tutilganini ham hisobga olishi kerak”. Shu nuqtai nazardan, masalan “*What kind of idiots do you have working here?*”ni “*Qanday axmoqlar ishlaydi o’zi mehmonxonengizda?*” deya tarjima qilgan, “**Axmoq**” so’zini qollagan “**Idiot**” so’zini o’rniga va aynanshu tarjima madaniy moslashuvga kiradi. Shunga o’xshash jumalardan biri “*Come on, you big sissy*” deya xaqorat qilgan ammo tarjimada “*Qo’rqma quyonyurak*” deb tarjima qilgan. Asliyat tildagidek insonni shaxsiyatiga tegadigon nisbatan qo’polroq so’z ishlatmagan.

Filmni qiziqarli qilish uchun frazalardan foydalanish

Filmni qiziqarli qilish maqsadida ayrim jumlar tushib qolishi yoki ortirilishi ham mumkin. Yoki fraza, metonimiya, sinekdoxalardan foydalanib tarjimani tarjima qilinayotgan madaniyatga moslashtirib xalqqa ancha tshunarliroq, qiziqarliroq va kulgiliroq ham qilish mumkin. Tarjimon passiv vositachi emas, balki kontekst va

maqsad ta'sirida qaror qabul qiluvchi faol muloqot ishtirokchisidir " . [Hatim , Mason , 1997, p.14]. Misol uchun, "You wanna forget about scarf, Marv? We got to talk."ni "Boshimga uramanmi sharfni, gapni eshit og'ayni" deya tomoshabinni diqatini va qiziqishini kuchaytirish maqsadida tarjima qilgan.

Xulosa

Film tarjimasida izohlovchi-aniqlovchini ifodalash va eng muhumi to'g'ri tarjima qilish orqani tomoshabinni diqatini o'ziga qaratish mumkin. Va bu eng samarali yondoshuv hisoblanadi. Ayrim joylarda madaniyatimizga to'ri kelmaydigon so'zlarni almashtirishimiz yoki o'sha so'zni manosini beradigon boshqa sinonimlardan ham foydalanishimiz mumkin. Chunki tarjimon nafaqat lug'aviy manoni, balki izohning kommunikativ vazifasini ham yetkazishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. . O'zbekistoon Respublikasi Prezidentining' Chet tillarni o'rgatishni yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida ". 2019-yil 20- maydagi PQ- 4312-son qarori.
2. J. C. Catford, A Linguistic Theory of Translation . London: Oxford University Press. (1965).
3. P. Newmark, A Textbook of Translation. London: Prentice Hall. (1988).
4. M. Baker, In Other Words: A Coursebook on Translation . Routledge. (2011).
5. Hatim, B., & Mason, I. The Translator as Communicator . Routledge. (1997).
6. E. A. Nida, Toward a Science of Translating . Leiden: Brill. (1964).

Uyda yolg'iz-2 Home along-2

	Ingliz tilida	O'zbek tilida	
1.	Honey, do you know where the batteries for this camcorder are?	Azizam kameramni akkumliyatorini ko'rmasinmi?	Kevin dadasi
2.	Uncle Frenk is taking a shower.	Frenk amakim dush qabul qilayapdilar.	Kevin

3.	Wet Bandits escape during prison riot	Xo'l qaroqchilar, tartibsizliklar oqibatida qamoqdan qochdilar.	Gazeta sarlavhasi
4.	Yup, one quick score.	Imillama, imillama qariya	Gari
5.	We were the Sticky Bandits	Ilgarilari ho'l o'g'ri bo'lganmiz, ana endi yopishqoq o'g'ri bo'lamiz.	Mark
6.	And there is plenty more where that came from.	Ichida o'yinchoqlari ham bor birodar.	Kevin
7.	Get out of here, you nosy little pervert, or I am gonna slap you silly!	Yo'qol ko'zimdan shumtaka	Kevinni soxta dadasi
8.		Xaa, Ro'y amakim shu yerda turar ekanlar	Kevin
9.	You wanna forget about scarf, Marv? We got to talk.	Boshinga uramanmi sharfni, gapni eshit og'ayni	Gari
10.	How about hotels? Tourists carry lots of cash.	Ko'chadagi baqollarchi, anqo'v turistlar. Ularda hamisha next pul bo'ladi	Gari
11.	Nine-year-olds rob candy stores, Marv.	Ular bolalar tunaydi galvars	Gari
12.	Yep. There is nobody dumb enough to knock off a toy story on Christmas Eve.	Qay bir qaroqchi bayram oldi qo'g'irchoqlar do'konini o'margan.	Gari
13.	That will be \$23.75	Shunday qilib sizdan 4\$ 75sent yigitcha	Mrs.Duncan
14.	Beat that, you little trout sniffer.	Boshla sassiq mishiqli	Bas
15.	I would not want to spoil your fun, Mr. Cheapskate.	Umuman safarizni buzmoqchi emasman qurumsoq janoblari	Kevin
14.	There are all a bunch of jerks.	Kalta faximlar to'dasi	Kevin
15.	New York City, the land of opportunity	New York Boyvochalar shahri	Gari
16.		Batar bo'l galvars yur ketik	Gari

17.	Hiya, pal.	Salom oshna	Gari
18.	Merry Christmas.	Bayraming muborak bo'lsin shaytonvacha	Marjon sotuvchisi
19.	Come along, Cedric.	Eee o'likday cho'zilmay o'l	Reception xodimi
20.	Merry Christmas, you filthy animal.	Bayraming muborak bo'lsin megajin	Kevin
21.	Well, hello.	Salom jonidan	Mark
22.	Good luck, little fella.	Mayli omadingni bersin mishiqli	Gari
23.	You can mess with a lot of things, but you can not mess with kids on Christmas.	Bayramni buzishiylarga yo'l qo'ymayman ablaxlar	Kevin
24.	Run along, Cedric.	Tezroq qimirla to'nka	Reception xodimi
25.	Merry Christmas, Harry!	Murodimizga yetdik og'ayni	Gari
26.	That is very sweet of you.	Sen judayam raximdil bola ekansan	Mrs.Duncan
27.	Thank you, I will do that.	Albatta aytganini qilaman o'g'lim	Mrs.Duncan
28.	All right, kiddo.	Ho'sh bolakay. Ushla yigitcha.	Marjon sotuvchisi
29.	It is freedom	Ozodlikni hidi ovsar	Gari
30.	You little.....	Voy ablaxey	Reception xodimi
31.	We have got to stop that delinquent!	Baribir tutamiz mutaxamni	Reception xodimi
32.	I hate pulling a job, knowing that little creep is on the loose.	U itvacha tirik ekan qo'lim ishga bormaydi	Gari
33.	Hello? Uncle Rob! Aunt Georgette!	Hoy! Kim bor? Ro'y amaki, Shaneta xola	Kevin
34.	It is me, your favourite nephew, Kevin!	Bu menman sumkali jiyaningiz Kevinman	Kevin

35.	What kind of idiots do you have working here?	Qanday axmoqlar ishlaydi o'zi mehmonxonengizda?	Kevin onasi
36.	He took our picture!	Itvacha bizni suratga oldi	Gari
37.	Get the money! I will kill him! That little...	Pullarni yig' men anavu itvachani o'ldiraman	Gavi
38.	Sony?	Bolakay?	Gavi
39.	Okay kid give it to me	Qani bolakay tashla aparatni	Gavi
40.	If you can not do any better than that kid you are going to lose	Agar qo'lindan keladigon ish shu bo'lsa mishiqli o'ldim deyaver	Gavi
41.	-	Xozir onangni ko'rsataman itvacha. Meni sovunimga kir yuvmabsan hali.	Gavi
42.	Hi I have reached the top.	Gari bu yaramas bizni qo'limizga tushdi.	Mark
43.	-	Xa nomard hozir ko'rasan. Qo'lga tushdim deyaver.	Gavi
44.	-	Voy padari lanatey o'lasan mendan xali	Gavi
45.	Come on, you big sissy	Qo'rqma quyonyurak	Gavi
46.	How do you like the ice kid.	Mana qo'lga ham tushding bolakay. Axvollarin qaley yigitcha?	Gavi va Mark
47.	-	Lanati kabtarlar	Gavi
48.	Well I know you and Christmas trees and this is the biggest one around.	Shahardagi eng kata archa shuku tentak	Kevin onasi
49.	Fleur do not get your hopes up	Bekorga hursand bo'lyapsan o'g'ayni	Kevin
50.	Kevin! You spend 967\$ on room service?	Kevin! 967\$ni boshini yebsanku tirancha	Kevin dadasi
51.	My,my,my! Where did you get all that money?	Voy-bo shuncha pulni qayerdan oldiz birodar-aziz?	Mrs.Duncan.